International

scientific and practical conference

DECEMBER 6
2024

2024



STDF

Science technology& Digital finance

Google Scholar

The main directions of socio-economic development of New Uzbekistan: problems and solutions

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

JIZZAKH BRANCH OF THE NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN NAMED AFTER MIRZO ULUGBEK

Scientific journal of Science technology & Digital finance

The main directions of socio-economic development of New Uzbekistan: problems and solutions collection of materials of the international scientific and practical conference on the topic

(December 6, 2024)

(Part 2)

Jizzakh-2024

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024

The main directions of socio-economic development of New Uzbekistan: problems and solutions collection of materials of the international scientific and practical conference on the topic – Jizzahk: Department of economics and tourism of Jizzakh branch of the national university of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, December 6, 2024, 450 pp.

Editors in charge: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O'ralov A.I.

In the collection of materials of the conference, the role and role of Science, Education and production in the era of globalization, the pressing problems of the issues of interaction of these processes, feedback on their solutions were presented by mature specialists of the field.

In addition, research on the scientific and practical topic, carried out in the economics, Exact Sciences, Natural Sciences and socio-humanities during the globalization period, information is presented in the scientific and practical fields, which includes the latest innovative technologies in the fields of production.

It can be argued that this collection is one of the specific intersections of current thoughts and innovative ideas of the world of science. This scientific and practical conference was actively attended by professors and scientific researchers engaged in scientific research in Uzbekistan and foreign countries. In increasing the position of the scientific and practical conference, the professors and teachers of domestic and foreign higher educational institutions made a significant contribution.

Professors and teachers of foreign higher educational institutions who actively participated in the work of the conference made a worthy contribution to the high level of interaction with scientists of our country. The processes of international cooperation with foreign countries and exchange with them in the field of Science in the era of globalization have a positive effect on the development of Higher Education, the fields of Science and production. The materials of this conference are special in that they include a wide range of research, from theoretical developments to practical solutions, demonstrating the diversity of approaches and directions in this area.

In conclusion, it should be noted that this scientific and practical conference will be a very useful collection for everyone who is interested in modern research in the fields of further development of Higher Education, Science, Education and production in the era of globalization. The authors are responsible for the content and quality of the articles and abstracts included in the collection.

XUFIYONA IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH JARAYONIDA INFLYATSIYA DARAJASI PASAYTIRISH YO‘LLARI



Qodirov Shohijahon
O‘zbekiston Milliy Universiteti Jizzax filiali talabasi
Raxmonov Ro‘ziboy
O‘zbekiston Milliy Universiteti Jizzax filiali talabasi
Ruziyev Rufat
O‘zbekiston Milliy Universiteti Jizzax filiali talabasi

ANNOTATSIYA: Ushbu tezis xufiyona iqtisodiyotni qisqartirish orqali inflyatsiya darajasini pasaytirishning asosiy yo‘llarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Xufiyona iqtisodiyot, asosan, mamlakatning soliq bazasini kamaytirib, davlat byudjetiga daromadlarni yetkazib bermaslik orqali iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, bu iqtisodiyotda bozor mexanizmlarining noto‘g‘ri ishlashi, narxlar barqarorligining buzilishi va inflyatsiya darajasining ortishiga sabab bo‘luvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Tezisning amaliy ahamiyati shundan iboratki, u davlat iqtisodiy siyosati va inflyatsiyaga qarshi choralarni samarali amalga oshirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar beradi. Xufiyona iqtisodiyotni qisqartirishning iqtisodiy va ijtimoiy natijalari ko‘rib chiqilib, soliq bazasini kengaytirish va davlat byudjeti barqarorligini ta’minlash orqali inflyatsiya darajasini pasaytirish mexanizmlari ishlab chiqilgan.

Tezis xufiyona iqtisodiyot muammosiga duch kelgan mamlakatlar, xususan, rivojlanayotgan davlatlar uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, iqtisodchi-mutaxassislar, davlat boshqaruvi organlari, shuningdek, ilmiy-tadqiqot doiralari uchun qimmatli ma’lumot manbasi hisoblanad. Mazkur ishda xufiyona iqtisodiyotning asosiy sabablari va ularning inflyatsiya darajasiga ta’sirini aniqlash uchun chuqur tahlil amalga oshirilgan.

KALIT SO’ZLAR: Xufiyona iqtisodiyot, Inflyatsiya. Soliq tizimi , Raqamlashtirish, Elektron to‘lov tizimlari, Moliyaviy savodxonlik

Fernando de Soto “Boshqa yo‘l” asarida xufyona iqtisodiyotni xalqning korrupsiyalashgan davlatning qashshoqlashayotgan aholining asosiy ehtiyojlarini qondirishga layoqatsizligiga nisbatan stixiyali va ijodiy reaksiyasi (javobi) deb atadi. U tarnsaksiya xarajatlarini oshkoralik (legallik) va nooshkoralik (nolegallik) kriteriyalari asosida guruhlashni taklif etgan.

Xufyona iqtisodiyot rivoj topishining yangi bosqichi XX asrning o‘rtalaridan boshlandi

1991 yilda Jenevada Yevropa statistiklarining yashirin va norasmiy iqtisodiyotga bag‘ishlangan konferensiyasi bo‘lib o‘tgan. Uning materiallari asosida rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida xufyona iqtisodiyot statistikasi bo‘yicha maxsus ko‘rsatmalari nashr etilgan. Iqtisodiy adabiyotlarda xufyona iqtisodiyotga turli ta’riflar berilgan:

1. Xufyona iqtisodiyot qonun asosida man qilingan faoliyat turlari deb ta’riflanadi.

2. Xufyona iqtisodiyot iqtisodiy faoliyatning kuzatilmagan va yashirin faoliyat turi.

3. Xufyona iqtisodiyot rasmiy statistikada u yoki bu sabablargako‘ra hisobga olinmagan har qanday iqtisodiy faoliyat bo‘lib, unda ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar yalpi ichki mahsulot tarkibiga kiritilmaydi hamda soliqqa tortishdan chetda qoladi.

Xufyonalik – shaxslarning kundalik faoliyatni tashkil qilishda mavjud huquq(qonun) normalaridan foydalanishdan bo‘yin tovlash va yozilmagan huquqqa, ya’ni an’analar va urf-odatlarda qayd etilgan normalarga hamda mulkchilik huquqlarini almashish va himoyalash yuzasidan kelib chiqqan nizolarni hal etishning huquq doirasidan chetga chiquvchi mexanizmlariga murojaat etishidan iborat.

Xufyona iqtisodiyotning vujudga kelish va rivojlanish sabablari va omillari xilma-xil bo‘lib, ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

1.Antropologik omillar, ya’ni insonning qarama-qarshi tabiati, undagi yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi kurash xususiyatlari.

2.Iqtisodiy omillar: davlatning soliq siyosatidagi kamchiliklar, tarmoqlari va sohalari o‘rtasidagi muvozanat va balansning mavjud emasligi;iqtisodiyotning siklik tebranishlari, aholi xarid qobiliyatining pastligi; transaksiya xarajatlarining yuqoriligi;

3.Huquqiy omillar: qonunchilik bazasining takomillashmaganligi, iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurash mexanizmining mukammal emasligi; huquqni himoya qilish organlari faoliyatining samarasizligi;

4.Ijtimoiy-siyosiy omillar: ijtimoiy-siyosiy vaziyat, davlatga ishonch darajasi; jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning hal etilishi darajasi; aholining ijtimoiy-psixologik kayfiyati; davlatning xususiy mulk va sektorga munosabati;

5.Ijtimoiy omillar: aholining tabaqalanishi darajasi; ishsizlik darajasi; kam ta’minlangan aholi qatlamlarining ko‘lami; mehnat migrantlarining ko‘pligi; mehnat munosabatlari, mehnat sharoitlari, ish haqi tizimi; ijtimoiy kafolatlar, pensiya ta’minoti;

6.Ma’muriy omillar: davlat boshqaruvi tizimidagi kamchiliklar; byurokratiya, davlat xizmatchilarining kompetentlik va mas’uliyatlilik darajasi; tadbirkorliklarga ma’muriy bosim, xomiylik qilishga majburlash darajasi va boshqalar.

Xufiyona iqtisodiyotning iqtisodiy tizimlarga ta'siri:

- Xufiyona iqtisodiyot soliq bazasini qisqartiradi va byudjet daromadlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.
- Nafaqat davlat mablag‘larini kamaytiradi, balki rasmiy mehnat bozoriga salbiy ta’sir o‘tkazadi. Bu inflyatsiyaning oshishiga bilvosita olib keladi.
- Bozor narxlari bilan soya iqtisodiyoti narxlari o‘rtasidagi tafovut ishlab chiqarish sektorida notekis raqobat muhitini yuzaga keltiradi.

Inflyatsiya va xufiyona iqtisodiyot o‘rtasidagi bog‘liqlik:

Xufiyona iqtisodiyot kengaygani sayin davlat soliq tushumlarining kamayishi natijasida davlat xarajatlarini qoplash uchun qo‘shimcha pul emissiyasiga murojaat qilishi mumkin, bu esa inflyatsiyani kuchaytiradi. Rasmiy iqtisodiyotning qisqarishi aholi daromadlari va iste'mol xarajatlarida nomutanosiblik keltirib chiqaradi, bu esa narxlarning barqarorligiga zarar yetkazadi.

Xufiyona iqtisodiyotni qisqartirish yo'llari:

- Soliq tizimini raqamlashtirish: Soliq to‘lovchilarni kuzatish va tekshirishning zamonaviy tizimlarini joriy qilish xufiyona faoliyatlarni aniqlash va kamaytirishga xizmat qiladi.
- Naqd pul aylanmasini cheklash: Elektron to‘lov tizimlarini rivojlantirish orqali iqtisodiy operatsiyalarning shaffofligini oshirish mumkin.
- Mehnat bozorini qonuniylashtirish: Norasmiy bandlikni kamaytirish uchun mehnat qonunchiligini soddalashtirish va shaffof tizimlarni yaratish.
- Aholi moliyaviy savodxonligini oshirish: Iqtisodiy bilimlarni oshirish orqali aholining soya iqtisodiyotiga kirib qolish ehtimolini kamaytirish.
- Ijtimoiy himoyani kuchaytirish: Aholining kam ta'minlangan qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash orqali noqonuniy faoliyatlarni qisqartirish.

Xufyona iqtisodiyotning miqyosi ko‘pincha iqtisodiy tizim turiga bog‘liq bo‘lib, bu bog‘liqlik bir xil xarakterga ega emas

Davlat siyosatini takomillashtirishning ahamiyati: Fiskal va monetar siyosatni integratsiyalashgan holda amalga oshirish xufiyona iqtisodiyotni qisqartirish va inflyatsiyani pasaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu davlatning moliyaviy barqarorligini oshirish bilan birga, iqtisodiyotning rasmiy sektoriga bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi. Moliya va soliq tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish orqali davlat tomonidan iqtisodiy faoliyatni samarali nazorat qilish imkoniyatlari kengayadi.

Xufiyona iqtisodiyotni qisqartirishning inflyatsiyaga ta'siri:

- Xufiyona iqtisodiyot qisqarishi natijasida davlat soliqlardan tushadigan daromadni oshiradi, bu esa byudjet taqchilligini kamaytirishga yordam beradi.
- Bozor sharoitlari rasmiy sektor tomonidan boshqarilganda, narxlarni barqarorlashtirishga erishiladi.
- Soliq va pul-kredit siyosatining samaradorligini oshirish orqali inflyatsiya darajasini uzoq muddatda nazorat qilish osonlashadi.

Shakllangan xufyona iqtisodiyotining yana bir qancha omillari guruhlari mavjud. Sabablar va sharoitlar iqtisodiy sohada xufyona faoliyatini shakllantirish jarayonida boshqacha rol o’ynaydi. Agar sabablar aslida uni yuzaga keltirsa, unda sharoitlar bu hodisani keltirib chiqarmaydi, balki avlod jarayonlariga ta’sir qiladi va uni aniqlashda ishtirok etadi. Xufyona iqtisodiyoti davlat va iqtisodiyot mavjud bo’lgan har qanday jamiyatda mavjud. Iqtisodiy sohada noqonuniy xatti-harakatlarning sabablarini ikki darajada ko’rib chiqish mumkin:

• ma’lum bir iqtisodiy tizimning muhim xususiyatlari bilan bog’liq fundamental sabablar: bozor, buyruq-ma’muriy, o’tish davri;

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024

• asosan olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosat bilan bog’liq aniq sabablar. Bozor iqtisodiy tizimiga xos bo’lgan xufyona iqtisodiy faoliyatining muhim omillari uning asosiy institutlari - bozor va davlatning disfunksiyalari hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki: Xufiyona iqtisodiyot iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatib, inflyatsiyani oshiruvchi asosiy omillardan biridir. Uning qisqarishi davlat byudjeti daromadlarini oshirish, iqtisodiy faoliyatni qonuniylashtirish va narxlar barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Soliq tizimini raqamlashtirish, elektron to‘lovlarni kengaytirish, ijtimoiy himoyani kuchaytirish va moliyaviy savodxonlikni oshirish xufiyona iqtisodiyotni kamaytirishning samarali usullaridir. Rasmiy mehnat bozorini rivojlantirish va davlat siyosatini shaffof qilish orqali iqtisodiy jarayonlarni nazorat qilish kuchayadi, bu esa inflyatsiyani pasaytirishga va iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, davlatning fiskal va monetar siyosati o‘zaro integratsiyalashgan bo‘lishi zarur. Xufiyona iqtisodiyotni kamaytirish nafaqat iqtisodiy barqarorlikni oshirishga, balki aholining iqtisodiy farovonligini ta’minlashga ham yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1) Абулқосимов Ҳ.П., Абулқосимов М.Ҳ. Иқтисодий хавфсизлик: назария ва амалиёт. Ўқув қўлланма.-Т.: Ноширлик ёғдуси, 2019
2) Шнайдер Ф. Черная дыра // Эксперт. 2000. № 12.; Шнайдер Ф., Энсте Д. Рост теневой экономики во всем мире // Экономическая теория преступлений и наказаний.
3) Муминов Н.Г. Иқтисодий тизимлар тараққиётида яширин иқтисодиётнинг ўрни // Иқтисод ва молия, №2, 2018.
4) ABULQOSIMOV H.P., MUMINOV N.G. XUFYONA IQTISODIYOT O‘quv qo‘llanma Toshkent«YANGI NASHR» 2020
5) Nizametdinov A., Kerim K., Xudoyarov R. YOSHLARNI TADBIRKORLIK ORQALI BANDLIGINI TA’MINLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH: https://doi. org/10.5281/zenodo. 14216039 //International scientific and practical conference. – 2024. – T. 1. – №. 3. – C. 94-97.
6) Nizametdinov A. et al. XUFYONA IQTISODIYOTNING RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: https://doi. org/10.5281/zenodo. 14186622 //International scientific and practical conference. – 2024. – T. 1. – №. 3. – C. 89-93.
7) Nizamedinov A., Anorboyeva D. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH: XORIJ TAJRIBASI: https://doi. org/10.5281/zenodo. 14020993 //International scientific and practical conference. – 2024. – T. 1. – №. 3. – C. 47-51.
8) Nizametdinov A., Anorboyeva D. IKKINCHI XUFYONA IQTISODIYOTNING TAVSIFI: https://doi. org/10.5281/zenodo. 14020939 //International scientific and practical conference. – 2024. – T. 1. – №. 3. – C. 44-46.

9) Nizametdinov A. IQTISODIY RIVOJLANISHNING BIRDAN BIR TOGRI YOLI BU YASHIL IQTISODIYOTGA O ‘TISHDIR //International Journal of scientific and Applied Research. – 2024. – T. 1. – №. 2. – C. 317-322.
10) Nizametdinov A. et al. AQSH MENEJMENTI //Science technology&Digital finance. – 2023. – T. 1. – №. 5. – C. 98-102.
11) Nizametdinov A., Ibragimov S. ELEKTRON TIJORATNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA MOHIYATI //International Journal of scientific and Applied Research. – 2024. – T. 1. – №. 2. – C. 114-117.
12) Nizametdinov A., Musanov A. RAQAMLI IQTISODIYOTDA TARMOQ INNOVATSION TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISHNING XALQARO TENDENTSIYALARI //International Journal of scientific and Applied Research. – 2024. – T. 1. – №. 2. – C. 161-164.
13) Nizametdinov A., Xojiboqiyeva N. RAQAMLI IQTISOD VA INNOVATSION AXBOROT-KOMMUNIKATSIYALAR TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNI DOLZARB MASALALARI //International Journal of scientific and Applied Research. – 2024. – T. 1. – №. 3. – C. 92-94.
14) Nizametdinov A., Usmanov M. YASHIL IQTISODIYOTNING ISTIQBOLLARI: O ‘SISHNING OQILONA TAXMINLARI VA CHEGARALARI //International Journal of scientific and Applied Research. – 2024. – T. 1. – №. 2. – C. 283-287.
15) Nizametdinov A., Samanqulov D. YASHIL IQTISODIYOT: MOHIYATI, YO ‘NALISHLARI VA XUSUSIYATLARI //International Journal of scientific and Applied Research. – 2024. – T. 1. – №. 2. – C. 247-250.

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024